

**FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJA BERUVCHI  
PhD.03/30.12.2019.K.05.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**XORAZM MA‘MUN AKADEMIYASI**

**MATMURATOV BAXTISHOD YANGIBOYEVICH**

**GLITSIRRIZIN KISLOTASI VA UNING TUZLARI BILAN AYRIM  
SITOKININLARNING SUPRAMOLEKULYAR KOMPLEKSLARINI  
OLISH HAMDA ULARNING BIOLOGIK FAOLLIGI**

**02.00.10 – Bioorganik kimyo**

**KIMYO FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI  
AVTOREFERATI**

**Farg‘ona – 2023**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**  
**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)**  
**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)**

**Matmuratov Baxtishod Yangiboyevich:**

Glitsirizin kislotasi va uning tuzlari bilan ayrim sitokininlarning supramolekulyar komplekslarini olish hamda ularning biologik faolligi..... 3

**Матмуратов Бахтишод Янгибоевич:**

Получение супрамолекулярных комплексов глицирризиновой кислоты и ее солей с некоторыми цитокинами и их биологическая активность..... 21

**Matmuratov Bakhtishod Yangiboevich:**

Obtaining supramolecular complexes of Glycyrrhizic acid and its salts with some Cytokinins and their biological activity..... 41

**E'lon qilingan ishlar ro'yxati**

Список опубликованных работ  
List of published works..... 45

**FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJA BERUVCHI  
PhD.03/30.12.2019.K.05.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**XORAZM MA‘MUN AKADEMIYASI**

**MATMURATOV BAXTISHOD YANGIBOYEVICH**

**GLITSIRRIZIN KISLOTASI VA UNING TUZLARI BILAN AYRIM  
SITOKININLARNING SUPRAMOLEKULYAR KOMPLEKSLARINI  
OLISH HAMDA ULARNING BIOLOGIK FAOLLIGI**

**02.00.10 – Bioorganik kimyo**

**KIMYO FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI  
AVTOREFERATI**

**Farg‘ona – 2023**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.4.PhD/K500 raqam bilan ro‘yxatga olingan.**

Dissertatsiya ishi Xorazm Ma‘mun akademiyasida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus va ingliz (rezyume) Ilmiy kengash web-sahifasi ([www.fdu.uz](http://www.fdu.uz)) hamda «Ziyonet» Axborot-ta‘lim portalida ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)) joylashtirilgan.

<b>Ilmiy rahbar:</b>	<b>Matchanov Alimjon Davlatboyevich</b> kimyo fanlari doktori, professor
<b>Rasmiy opponentlar:</b>	<b>Aripova Salimaxon Fazilovna</b> kimyo fanlari doktori, professor <b>Abdulladjanova Nodira Gulomjonovna</b> kimyo fanlari doktori, professor
<b>Yetakchi tashkilot:</b>	<b>O‘zbekiston milliy universiteti</b>

Dissertatsiya himoyasi Farg‘ona davlat universiteti huzuridagi PhD.03/30.12.2019.K.05.01 raqamli Ilmiy kengashning 2023 yil «\_\_\_» \_\_\_\_\_ soat \_\_\_ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 150100, Farg‘ona sh., Murabbiylar ko‘chasi, 19. Tel.: (99873) 244 44 02, faks (99873) 244-44-93).

Dissertatsiya bilan Farg‘ona davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (\_\_\_\_ raqami bilan ro‘yhatga olingan). (Manzil: 150100, Farg‘ona sh., Murabbiylar ko‘chasi., 19. Tel.: (99873) 244 44 02, faks (99873) 244-44-93).

Dissertatsiya avtoreferati 2023 yil «\_\_\_» \_\_\_\_\_ da tarqatildi.

(2023 yil \_\_\_\_\_dagi \_\_\_ raqamli reestr bayonnomasi)

**V.U. Xo‘jayev**  
Ilmiy daraja beruvchi  
ilmiy kengash raisi, k.f.d., professor

**M.Y. Imomova**  
Ilmiy daraja beruvchi ilmiy  
kengash ilmiy kotibi,  
kimyo fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

**SH.V. Abdullaev**  
Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash  
qoshidagi ilmiy seminar raisi, k.f.d., professor

## **KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Bugungi kunda dunyo miqyosida o‘simliklardan olinadigan oziq-ovqat mahsulotlarining sifatini yaxshilash va yetishtirishda samarali biostimulyatorlar yaratish kimyogarlar oldidagi dolzarb mavzulardan biri hisoblanadi. Ammo, hozirgi kunda qishloq xo‘jaligi ekinlari hosildorligi va sifatini oshirish maqsadida turli xil kimyoviy preparatlarni (pestitsidlar, fungitsidlar va akoridtsidlar) keng qo‘llanilganligi mahsulot sifatiga salbiy ta‘sir ko‘rsatmoqda. Shu tufayli ekologik toza, nojo‘ya ta‘sirlarga ega bo‘lmagan tabiiy biologik faol moddalar asosida yaratilgan biostimulyatorlardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Dunyoda o‘simliklar tarkibidan biologik faol moddalar ajratib olinib, ularni o‘simliklarning o‘sishi, hosildorligi va mahsulot sifatini oshirishga ta‘sir etish mexanizmlarini aniqlash bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Bu borada o‘simlikning ichki to‘qimalarida tashqi signallar retseptorlari funksiyasini bajaruvchi sitokininlardan (adenin va kinetin) foydalanish supramolekulyar komplekslarni qishloq xo‘jaligida biostimulyator sifatida keng qo‘llash, sitokininlar ta‘sirida o‘simlik hujayrasi tarkibidagi fermentlar faollashib, membrananing barqarorlik darajasi kuchayadi, natijada moddalar almashinuviga ijobiy ta‘sir qilib, o‘simlikning tashqi stress omillarga nisbatan chidamliligi ortishiga alohida e‘tibor qaratilmoqda.

Respublikamizda boshqoqli-don ekinlarning hosildorligini oshirish va sifatini yaxshilashda ilmiy va innovatsion yutuqlar amaliyotga joriy etilib, tabiiy biologik faol moddalar asosida olingan ekologik xavfsiz birikmalardan foydalanishga alohida e‘tibor qaratilmoqda. O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasining 4-yo‘nalishida va Prezidentning Farmoni<sup>1</sup> hamda “Ilmiy tadqiqot va innovatsiya faoliyatini rag‘batlantirish, ilmiy va innovatsiya yutuqlarini amaliyotga joriy etishning samarali mexanizmlarini yaratish” bo‘yicha muhim vazifalar belgilab berilgan. Bu boradagi vazifalarni amalga oshirishda tabiiy biologik faol moddalardan foydalanib boshqoqli-don ekinlarning hosildorligi va sifatini ta‘minlash muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 24 oktyabrdagi PQ-2640-sonli «O‘simliklarni himoya qilish va qishloq xo‘jaligiga agrokimyoviy xizmatlarni ko‘rsatish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 17 apreldagi PF-5418-son «Qishloq va suv xo‘jaligi davlat boshqaruv tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi, 2019 yil 17 iyundagi PF-5742-son «Qishloq xo‘jaligida yer va suv resurslaridan samarali foydalanish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Farmonlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 8-sentyabrdagi 546-son «2021 yilda boshqoqli-don yetishtirish chora tadbirlari to‘g‘risida»gi qarori hamda mazkur faoliyatiga tegishli boshqa meyoriy-huquqiy

---

<sup>1</sup>O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.01.2022 y. PF-60-son "2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida"gi Farmoni

hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining V. «Qishloq xo'jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof-muhitni muhofazasi» ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Bugungi kunga kelib dunyoning ko'plab ilmiy tadqiqot markazlarida qator kimyoviy preparatlarning o'simliklar o'sishi va rivojlanishiga ta'siri tadqiq qilinmoqda. Ularning hosildorligini oshirishda tashqi omillar ta'sirini biologik faol moddalar yordamida boshqarish bo'yicha bir qator tashkilotlar, jumladan qurg'oqchil yerlarda qishloq xo'jaligi tadqiqotlari xalqaro markazi (ICARDA), Birlashgan Millatlar Tashkilotining oziq-ovqat va qishloq xo'jalik tashkiloti (FAO), Angliya (Glastron, 1999), Avstraliya (Sergey Shabala va b., 2009, Leonard va Szabo, 2005), Yaponiya (Takeuchi 1992, Hirai, 1991, Kamuro, 1992, Kondo, 1996) va Washington davlat universitetida (AQSH) olib borilgan ilmiy tadqiqotlar natijalarida o'z aksini topgan. Shuningdek, Mustaqil davlatlar hamdo'stligi mamlakatlarida steroidli glikozidlarni o'simliklardagi moddalar almashinuvi, hosildorligi, patogen va tashqi ekstremal omillarga chidamliligiga ta'siri kabi fiziologik xususiyatlari N.L.Radyukina va b., (2009), F.M.Shakirova (2001, 2006), P.K.Kintya (1993), A.G.Jakote (1993,1997), A.F.Kirilov (2002, 2008), G.V.Shishkanu (2008), L.Fizer (1986), G.A.Karpovalar (2008) tomonidan bir qancha ilmiy tadqiqotlarda o'rganilgan.

Respublikamizda ham ushbu yo'nalish bo'yicha samarali ilmiy-tadqiqot natijalarga erishilgan. Jumladan, O'zR FA Bioorganik kimyo instituti va O'simlik moddalari kimyosi instituti olimlari D.N.Dalimov, A.A.Axunov, X.M. Shaxidoyatov, X.A.Abduazimov, A.D.Matchanov, M.B.Gafurov, H.H.Qushiyevlar tomonidan glitsirizin kislotasi (GK) ning turli xil hosilalarining kompleks birikmalari, g'o'zaning bargi polifenollari asosida olingan biostimulyatorlar tibbiyot hamda qishloq xo'jaligi amaliyotiga tadbiiq etilgan.

Biroq bu yo'nalishda ko'plab tadqiqotlar olib borilgan bo'lishiga qaramasdan, glitsirizin kislotasi va uning tuzlarini sitokinlar bilan supramolekulyar komplekslari olinmagan va tibbiyot hamda qishloq ho'jaligiga tadbiiq etilmagan. Bunday tadqiqotlar olingan supramolekulyar komplekslarni qishloq xo'jaligida biostimulyator sifatida keng qo'llanilishi uchun asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Xorazm Ma'mun akademiyasining «Xorazm viloyati sharoitida dorivor o'simliklarni o'stirish va ular asosida biologik faol qo'shimchalar ishlab chiqish» mavzusida va Yuqori texnologiyalar markazida "Shirinmiya ildizi ekstraksiyasi hosilalarini fizik-kimyoviy tadqiq qilish" mavzusidagi amaliy loyihalar doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi:** GK va uning tuzlarining sitokinlar bilan turli xil molyar nisbatlardagi suvda eruvchan supramolekulyar komplekslarini olish hamda ularning biologik faolliklarini o'rganishdan iborat.

### **Tadqiqotning vazifalari:**

-texnik glitsirizin kislotasidan toza holatdagi GK va uning tuzlarini ajratib olish hamda ularni adabiyot ma'lumotlar bilan taqqoslab identifikatsiya qilish;

-GK va uning tuzlarini adenin hamda kinetin bilan turli xil molyar nisbatlardagi suvda eruvchan supramolekulyar komplekslarini olish, ularning fizik-kimyoviy va spektral xususiyatlarini o'rganish;

-kompleks birikmalarning reologik xususiyatlari asosida barqarorlashtiruvchi kuchlar tabiatini o'rganish, barqarorlik konstantalari va Gibbs erkin energiyasi qiymatlarini aniqlash;

-kukunli difraktometriya usuli yordamida supramolekulyar komplekslarning kristallik darajasini o'rganish;

-kompleks birikmalarning boshqoli don o'simliklari unuvchanligi, sifati, to'yimlilik darajasi hamda tarkibidagi makro-mikroelementlar miqdoriga ta'sirini o'rganish;

-kompleks birikmalarning boshqoli don o'simliklariga biostimulyatorlik ta'siri natijasida maqbul kontsentratsiyali eritmalarini dala sharoitida qo'llash va unga tavsiyalar ishlab chiqish.

**Tadqiqotning ob'ekti sifatida** shirinmiya o'simligi (*Glycyrrhiza glabra* L.) ildizidan olingan glitsirizin kislotasi va uning tuzlari, sitokininlar (adenin, kinetin) hamda ularning supramolekulyar komplekslari, tritikalening "Sardor" va yumshoq bug'doyning "Krasnodar 99" navlari tanlangan.

**Tadqiqotning predmeti** GK va uning tuzlari asosida adenin, kinetinning supramolekulyar komplekslarini olish, ularning tuzilishi, fizik-kimyoviy xossalari va biologik faolligini aniqlashdan iborat.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqot ishida kimyoviy (ekstraksiya, tozalash, cho'ktirish, qayta kristallash, titrlash, gidroliz, neytrallash), zamonaviy instrumental usullar Ultrabinafsha (UB) va Infracizil (IQ) spektroskopiya, yuqori samarali suyuqlik xromatografiya (YUSSX) usuli, kukunli difraktometriya, induktiv bog'langan plazmalı-mass spektrometriya (IBP MS), YUSSX mass-spektrometriyasi (YUSSX MS), biokimyoviy, fiziologik, axborot-kompyuter tahlil usullaridan foydalanildi. Olingan natijalarni statistik qayta ishlash Excel 2003 (Microsoft Office; AQSh) va Origin Pro v. 8.5 SR1 (EULA, Northampton, MA 01060-4401, AQSh) dasturlaridan foydalanildi.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

glitsirizin kislotasi va uning tuzlari asosida adenin va kinetinning turli xil molyar nisbatlardagi 30 ta supramolekulyar kompleks birikmalari olingan va ularning spektral hamda reologik xususiyatlarini o'rganish asosida, komplekslarni barqarorlashtiruvchi kuchlar vodorod bog'lari, gidrofob-gidrofob, ion-dipol' ( $-\text{NH}_3^+\cdots\text{O}-\text{H}$ ,  $\text{NH}^+\cdots\text{OH}^-$ ) hamda elektrostatik ( $-\text{COO}^-\cdots^+\text{NH}_3^+$ ) ta'sirlashuvlar ekanliklari isbotlangan hamda barqarorlik konstantalari va Gibbs erkin energiya qiymatlari fosfatli bufer muhitlarida o'rganilganda, mazkur komplekslarning sho'rlanish sharoitida ham barqaror ekanligi aniqlangan;

ilk bor kukunli difraktometriya usuli yordamida supramolekulyar komplekslarning kristallanish darajasi, hajmi va tomonlari uzunliklari o'rganilganda kristall panjara shakli monoklinik shakldan tetragonal shaklga o'tishi va natijada kompleks hosil bo'lishi natijasida ularning kristallik darajasi va shakli o'zgarishi isbotlangan;

supramolekulyar komplekslarning IQ spektroskopiya tahlili natijalari va mass-spektrlaridagi asosiy molekulyar ionlardan tashqari dastlabki moddalarning monomer, dimer hamda trimerlariga tegishli molekulyar ion signallari bilan birga  $[M^{GK}+M^{Sitoknin}+H]^+$  va  $[2M^{GK}+M^{Sitokitin}+H]^+$  larga tegishli ionlarning kuzatilishi asosida komplekslarda GK va sitokinin molekulari o'zaro nokovalent ta'sirlashuvlar hisobiga muvofiqlashganligi isbotlangan;

olingan supramolekulyar komplekslarning ta'sirida "Krasnodar 99" bug'doy navining unish-rivojlanish jarayonida  $\alpha$ -amilaza fermenti faolligi ortganligi, don tarkibidagi umumiy oqsillar miqdori boshqalariga nisbatan GKUKT:adenin 9:1 kompleksi ta'sirida 27,39% ga oshganligi aniqlangan va donlar tarkibidagi makro va mikro-elementlarning miqdori nazoratga nisbatan qiyosiy o'rganilganda, Ca 7-8%, Fe 21% gacha hamda kleykovina miqdori ortganligi hisobiga bug'doyning sifati yaxshilanishi aniqlangan.

**Tadqiqotning amaliy natijasi** quyidagilardan iborat:

GK va uning tuzlari asosida olingan barcha supramolekulyar komplekslar ta'sirida bug'doy tarkibidagi umumiy oqsillar miqdori oshganligi qayd etilgan. GKUKT:adenin 9:1 ta'sirida umumiy oqsillar 27.39 % (nazoratda 15.12%) ko'tarilgan. GKMAT:adenin 4:1, GKMAT:kinetin 4:1, GKMAT:kinetin 9:1, GKUKT: kinetin 2:1 hamda GKUNT:adenin 9:1 ta'sirida don tarkibidagi kleykovina miqdori nazoratga nisbatan 4,5% ga oshganligi aniqlangan;

GK va uning tuzlarining sitokininlar bilan olingan supramolekulyar kompleks birikmalari boshqali don o'simliklari unish-rivojlanish jarayonida  $\alpha$ -amilaza faolligiga yaqqol ijobiy ta'sir ko'rsatishi va shu bilan birga donning kimyoviy tarkibi kleykovina va umumiy oqsil miqdoriga ijobiy ta'sir ko'rsatishi, kelajakda ushbu biostimulyatorlardan boshqali don ekinlari hosildorligini oshirish va ozuqaviy qiymatini yaxshilashda foydalanish imkoniyatlari ochib berilgan;

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Ilmiy tadqiqot natijalarining ishonchliligi olingan supramolekulyar komplekslarni tadqiq qilishda zamonaviy fizik-kimyoviy (UB, IQ-spektroskopiya, YUSSX, Kukunli difraktometriya, IBP MS, YUSSX MS) va biologik tadqiqot usullaridan foydalanilganligi; tadqiqot natijalarining respublika va xalqaro miqyosdagi ilmiy konferentsiyalarda muhokama etilganligi, tajribalar natijalarini O'zR VM huzuridagi OAK tomonidan tan olingan mahalliy va xalqaro ilmiy jurnallarda chop etilganligi bilan asoslandi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.**

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundan iboratki, GK va uning tuzlarini sitokininlar (adenin, kinetin) bilan turli xil molyar nisbatlarda supramolekulyar komplekslari olingan, ularning kimyoviy tuzilishi, suvli

eritmalarida reologik xususiyatlarini o'rganilib, barqarorlik konstantalari va Gibbs erkin energiyalari hisoblab chiqilgan va komplekslarning kukunli difraktometriya usuli yordamida olingan natijalar tahlili boshlang'ich moddalarga nisbatan kristall shakli va o'lchamlari o'zgarishi aniqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati shundan iboratki, GK va uning tuzlari hamda sitokininlar (adenin, kinetin) asosida boshqoli don o'simliklar o'sish, rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatuvchi biostimulyatorlar yaratilib, dala sharoitida Xorazm viloyati Gurlan tumanidagi "E'zoza-Tolibjon" fermer xo'jaligida, Jizzax viloyati G'allaorol shahri hududidagi "Lalmikor" dexqonchilik ilmiy tadqiqot instituti (ITI) dalalarida boshqoli-don ekinlariga ta'siri sinovdan o'tkazilib, supramolekulyar kompleks birikmalarning tuzilishi bilan biologik faolligi orasidagi bog'liqlik o'rganilgan, bu esa o'z navbatida GK va sitokininlar asosida yangi avlod biostimulyatorlarga ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** GK va uning tuzlari asosida sitokininlar bilan har xil nisbatlarda supramolekulyar komplekslarini olish va ularning biologik faolligi bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

GKMAT:adenin 4:1, GKMAT:kinetin 4:1, GKUKT:adenin 9:1 komplekslar Xorazm viloyati Gurlan tumani hududida joylashgan "E'zoza Tolibjon" fermer xo'jaligining maydonida "Krasnodar-99" bug'doy navida sinovdan o'tkazilgan va Jizzax viloyati G'allaorol shahri hududida joylashgan "Lalmikor dexqonchilik ilmiy tadqiqot instituti" ning tajriba maydonida tritikalening "Sardor" naviga joriy qilingan (O'zR Qishloq xo'jaligi vazirligining 2022 yil 11 noyabrdagi 07/23-04/8344-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, Krasnodar 99 navi hosildorligi 5,9-6,8 ts/ga, Tritikalening Sardor navi 2,5 ts/ga oshirish imkonini bergan.

GKMAT:adenin 4:1, GKMAT:kinetin 4:1, GKUKT:adenin 9:1 komplekslari Qozog'iston Respublikasining Turkiston viloyati TOO "Z-Agro" dalasida bug'doyning "Krasnodar-99" naviga joriy qiligan (TOO "Z-Agro" tomonidan 2022 yil 15 iyulda berilgan dalolatnoma). Natijada urug' unuvchanligining yaxshilanganligi, ildiz poya tizimining kasalliklarga hamda noqulay ob-havo sharoitiga chidamliligi nazoratga nisbatan 1,5-2,0 barobar ortishiga imkon bergan.

GKMAT:adenin 4:1 ITD-9-27 "Batat, kartoshka va topinamburning abiotik omillarga chidamlilik xususiyatlarini tahlili va sho'rga chidamli liniyalarini *in vitro* usuli yordamida yaratish" (2017-2019 yillar) loyihasida batat hamda kartoshkani *in vitro* sharoitida o'stirishda biostimulyatorlar sifatida foydalanilgan (O'zR Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2022 yil 9 sentyabrdagi 89-06-34 sonli ma'lumotnomasi). Natijada, patogensiz ko'chatlarini 1,2 marta oshirish imkonini bergan

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 2 ta halqaro va 7 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 14 ta ilmiy ish chop etilgan. Shulardan O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish

tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta maqola, jumladan, 2 tasi Respublika va 3 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, to‘rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 94 betni tashkil etadi.

## **DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI**


**Dissertatsiyaning kirish qismida** dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va muhimligi, maqsad hamda vazifalari asoslab berilgan, tadqiqotning ob‘ekti va predmeti ifodalangan, O‘zbekiston Respublikasida fan hamda texnologiyalarni rivojlantirish yo‘nalishiga muvofiqligi keltirilgan hamda tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ishonchligi asoslangan, natijalarning nazariy hamda amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etish asoslari keltirilgan, nashr qilingan ilmiy ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Glitsirrizin kislotasi asosida supramolekulyar komplekslar olish va ularning biologik faolliklari”** deb nomlangan birinchi bobi adabiyotlar tahliliga bag‘ishlangan bo‘lib, unda shirinmiya o‘simligining kimyoviy tarkibi, GK va uning tuzlari hamda ular asosida supramolekulyar komplekslar, ularning olish usullari, kimyoviy tuzilishlari, fitogormonlar (sitokininlar), ularning biologik faolliklari bo‘yicha adabiyot ma‘lumotlari tahlil qilingan.

Dissertatsiyaning **“Glitsirrizin kislotasi va uning tuzlari asosida supramolekulyar komplekslar olish, ularni fizik-kimyoviy hamda spektral xususiyatlarini o‘rganish”** deb nomlangan ikkinchi bobi GK va uning tuzlarini sitokininlar bilan supramolekulyar komplekslarini olish, barcha olingan yangi supramolekulyar komplekslarning fizik-kimyoviy xususiyatlarini o‘rganish, spektral ma‘lumotlarini tahlil etishga bag‘ishlangan.

Ma‘lum usullar yordamida GK va uning tuzlari bilan sitokininlarning (adenin, kinetin) turli xil molyar nisbatdagi supramolekulyar komplekslari olingan hamda fizik-kimyoviy kattalıkları (1-jadval), barqarorlik konstantalari, Gibbs erkin energiya qiymatlari aniqlangan. Olingan komplekslarning fizik-kimyoviy kattalıklariga (UB-, IQ-spektroskopiya, mass-spektrometriya) asoslanib ularning tuzilishlari isbotlangan.

GK va uning tuzlari bilan ayrim sitokininlarning (adenin, kinetin) supramolekulyar komplekslari quyidagi sxema asosida olingan.



## 1-sxema. GK, GKMAT, GKMKT, GKUKT, GKUNT bilan adenin va kinetinning supramolekulyar komplekslarini olish

### 1-jadval Olingan supramolekulyar komplekslarning ayrim fizik-kimyoviy kattaliklari


№	R <sub>1</sub>	R <sub>2</sub>	R <sub>3</sub>	Sitokin	Nisbat	T <sub>parh</sub> °C(±1)	Unum, %	UB, λ <sub>max</sub> , nm (lgε)	IQ spektridagi tebranish chastotalari, sm <sup>-1</sup>	
1	H	H	H	Ad	2:1	194	88%	259,7 (4,87)	ν(OH, NH) =3309, ν(CH <sub>3</sub> , CH <sub>2</sub> , CH) =2933, ν(C=O) =1697, ν(C=O) =1654 (11C=O), ν(C=C, C=N) =1458, δ (CH <sub>3</sub> , CH <sub>2</sub> , CH) =1386, 1211, 1170 1033, δ(O-N)=1033, δ(CH=)= 979.	
2	H	H	H	Ad	4:1	201	89%	257,9 (4,51)	ν (OH, NH) =3412, ν (CH <sub>3</sub> , CH <sub>2</sub> , CH) =2957, 2872 ν(C=O) =1718, ν(C=O) =1655 δ (CH <sub>3</sub> , CH <sub>2</sub> , CH) =1458, 1386, 1363, 1261, 1213, δ(O-N)=1042, δ(CH=)= 979	
3	H	H	H	Ad	9:1	204	90%	257,9 (4,42)	ν (OH, NH) =3420, ν (CH <sub>3</sub> , CH <sub>2</sub> , CH) =2928, 2143, 2063, ν(C=O) =1722, (11C=O), ν (C=C, C=N) =1647, δ (CH <sub>3</sub> , CH <sub>2</sub> , CH) =1456, 1387, 1259, 1211, 1170, δ(O-N)=1036, δ(CH=)= 980	
4	H	H	H	Kin	2:1	206	91%	264 (4.46)	ν(OH, NH) =3339, ν(CH <sub>3</sub> , CH <sub>2</sub> , CH) =2928, ν(C=O) =1718, ν(C=O) =1653 (11C=O), ν(C=C, C=N) =1593, δ (CH <sub>3</sub> , CH <sub>2</sub> , CH) =1456, 1386, 1346 1259, 1213, 1163, δ(O-N)=1043, δ(CH=)= 982	
5	H	H	H	Kin	4:1	204	92%	261 (4.54)	ν (OH, NH) =3339, ν (CH <sub>3</sub> , CH <sub>2</sub> , CH) =2930, ν(C=O) =1728, 1699, ν(C=O) =1651 (11C=O), ν (C=C, C=N) =1591, δ (CH <sub>3</sub> , CH <sub>2</sub> , CH) =1456, 1387, 1261, 1213, 1168, δ(O-N)=1044, δ(CH=)= 982	
6	H	H	H	Kin	9:1	202	93%	260 (4.07)	ν (OH, NH) =3368, ν (CH <sub>3</sub> , CH <sub>2</sub> , CH) =2938, ν(C=O) =1717, 1699, ν(C=O) =1651 (11C=O), ν (C=C, C=N) =1591, δ (CH <sub>3</sub> , CH <sub>2</sub> , CH) =1456, 1387, 1362 1260, 1213, 1169, δ(O-N)=1043, δ(CH=)= 982	
7	H	NH <sub>4</sub>	H	Ad	2:1	183	90%	260,3 (4,37)	ν (OH, NH) =3199, ν (CH <sub>3</sub> , CH <sub>2</sub> , CH) =2934, 2864 ν(C=O) =1657, ν(C=O) =1593 (11C=O), ν(C=C, C=N) =1589, δ (CH <sub>3</sub> , CH <sub>2</sub> , CH) =1454, 1418, 1386, 1366, 1308, δ(O-N)=1040, δ(CH=)= 980	
8	H	NH <sub>4</sub>	H	Ad	4:1	175	91%	259,7 (4,57)	ν (OH, NH) =3198, ν (CH <sub>3</sub> , CH <sub>2</sub> , CH) =2934, 2868 ν(C=O) =1699, ν(C=O) =1645 (11C=O), ν(C=C, C=N) =1589, δ (CH <sub>3</sub> , CH <sub>2</sub> , CH) =1418, 1389, 1364, 1279, 1261, 1213, 1167, δ(O-N)=1040, δ(CH=)= 980	
9	H	NH <sub>4</sub>	H	Ad	9:1	178	92%	259,7 (4,45)	ν (OH, NH) =3219, ν (CH <sub>3</sub> , CH <sub>2</sub> , CH) =2926, 2866 ν(C=O) =1703, ν(C=O) =1645 (11C=O), ν(C=C, C=N) =1589, δ(CH <sub>3</sub> , CH <sub>2</sub> , CH) =1454, 1418, 1391, 1362, 1279, 1213, 1165, δ(O-N)=1040, δ(CH=)= 980	

## 1-jadval davomi

10	H	NH <sub>4</sub>	H	Kin	2:1	190	93%	280 (4,47)	v(OH, NH) = 3200, v(CH <sub>3</sub> , CH <sub>2</sub> , CH) = 2947, 2878 v(C=O) = 1703, v(C=O) = 1622 ( <sup>11</sup> C=O), v(C=C, C=N) = 1589, δ(CH <sub>3</sub> , CH <sub>2</sub> , CH) = 1446, 1416, 1304, 1254, 1213, δ(O-N) = 1040, δ(CH=) = 980
11	H	NH <sub>4</sub>	H	Kin	4:1	192	91%	262 (4,60)	v(OH, NH) = 3198, v(CH <sub>3</sub> , CH <sub>2</sub> , CH) = 2941, 2864 v(C=O) = 1705, v(C=O) = 1620 ( <sup>11</sup> C=O), v(C=C, C=N) = 1589, δ(CH <sub>3</sub> , CH <sub>2</sub> , CH) = 1454, 1417, 1390, 1362, 1304, 1279, 1213, 1157, δ(O-N) = 1039, δ(CH=) = 980
12	H	NH <sub>4</sub>	H	Kin	9:1	194	92%	260 (4,43)	v(OH, NH) = 3196, v(CH <sub>3</sub> , CH <sub>2</sub> , CH) = 2978, 2880 v(C=O) = 1705, v(C=O) = 1645 ( <sup>11</sup> C=O), v(C=C, C=N) = 1589, δ(CH <sub>3</sub> , CH <sub>2</sub> , CH) = 1456, 1418, 1387, 1261, 1213, 1167, δ(O-N) = 1034, δ(CH=) = 980
13	H	K	H	Ad	2:1	238	93%	259,7 (4,70)	v(OH, NH) = 3321, v(CH <sub>3</sub> , CH <sub>2</sub> , CH) = 2949, v(C=O) = 1653, v(C=O) = 1601 ( <sup>11</sup> C=O), v(C=C, C=N) = 1456, δ(CH <sub>3</sub> , CH <sub>2</sub> , CH) = 1363, 1331, 1305, 1254, 1213, δ(O-N) = 1032, δ(CH=) = 980
14	H	K	H	Ad	4:1	220	95%	258,5 (4,52)	v(OH, NH) = 3335, v(CH <sub>3</sub> , CH <sub>2</sub> , CH) = 2938, 2878 v(C=O) = 1717, v(C=O) = 1661 δ(CH <sub>3</sub> , CH <sub>2</sub> , CH) = 1456, 1418, 1387, 1352, 1261, 1211, δ(O-N) = 1030, δ(CH=) = 978
15	H	K	H	Ad	9:1	248	93%	257,9 (4,59)	v(OH, NH) = 3385, v(CH <sub>3</sub> , CH <sub>2</sub> , CH) = 2930, 2876, 2361, v(C=O) = 1705, ( <sup>11</sup> C=O), v(C=C, C=N) = 1653, δ(CH <sub>3</sub> , CH <sub>2</sub> , CH) = 1456, 1387, 1216, 1211, 1167, δ(O-N) = 1032, δ(CH=) = 980
16	H	K	H	Kin	2:1	221	94%	263,5 (4,60)	v(OH, NH) = 3649, v(CH <sub>3</sub> , CH <sub>2</sub> , CH) = 2922, 2862 v(C=O) = 1705, v(C=O) = 1616 ( <sup>11</sup> C=O), v(C=C, C=N) = 1559, δ(CH <sub>3</sub> , CH <sub>2</sub> , CH) = 1456, 1373, 1329, 1254, 1211, 1150, δ(O-N) = 1032, δ(CH=) = 978
17	H	K	H	Kin	4:1	196	92%	262,3 (4,54)	v(OH, NH) = 3566, v(CH <sub>3</sub> , CH <sub>2</sub> , CH) = 2924, 2868, 2358, v(C=O) = 1705, 1653, v(C=O) = 1614 ( <sup>11</sup> C=O), v(C=C, C=N) = 1558, δ(CH <sub>3</sub> , CH <sub>2</sub> , CH) = 1456, 1394, 1277, 1211, 1165, δ(O-N) = 1032, δ(CH=) = 980
18	H	K	H	Kin	9:1	214	92%	259,7 (4,42)	v(OH, NH) = 3566, v(CH <sub>3</sub> , CH <sub>2</sub> , CH) = 2924, v(C=O) = 1717, 1653, v(C=O) = 1608, ( <sup>11</sup> C=O), v(C=C, C=N) = 1559, δ(CH <sub>3</sub> , CH <sub>2</sub> , CH) = 1456, 1387, 1261, 1211, 1167, δ(O-N) = 1030, δ(CH=) = 920
19	K	K	K	Ad	2:1	214	91%	260,4 (4,64)	v(OH, NH) = 3285, v(CH <sub>3</sub> , CH <sub>2</sub> , CH) = 2922, 2864 v(C=O) = 1603, v(C=O), ( <sup>11</sup> C=O), v(C=C, C=N) = 1514, δ(CH <sub>3</sub> , CH <sub>2</sub> , CH) = 1456, 1391, 1362, 1287, 1169, δ(O-N) = 1042, δ(CH=) = 939
20	K	K	K	Ad	4:1	206	93%	259,8 (4,52)	v(OH, NH) = 3200, v(CH <sub>3</sub> , CH <sub>2</sub> , CH) = 2926, v(C=O) = 1601, v(C=O) = 1653 ( <sup>11</sup> C=O), v(C=C, C=N) = 1514, δ(CH <sub>3</sub> , CH <sub>2</sub> , CH) = 1514, 1454, 1393, 1360, 1287, 1169, δ(O-N) = 1040, δ(CH=) = 939
21	K	K	K	Ad	9:1	226	93%	259,6 (4,32)	v(OH, NH) = 3260, v(CH <sub>3</sub> , CH <sub>2</sub> , CH) = 2924, v(C=O), v(C=O) = 1601 ( <sup>11</sup> C=O), v(C=C, C=N) = 1557, δ(CH <sub>3</sub> , CH <sub>2</sub> , CH) = 1514, 1393, 1287, δ(O-N) = 1040, δ(CH=) = 939
22	K	K	K	Kin	2:1	221	96%	263,0 (4,03)	v(OH, NH) = 3215, v(CH <sub>3</sub> , CH <sub>2</sub> , CH) = 2930, 2864 v(C=O), v(C=O) ( <sup>11</sup> C=O) = 1595, v(C=C, C=N) = 1558, δ(CH <sub>3</sub> , CH <sub>2</sub> , CH) = 1456, 1396, 1362, 1286, 1251, 1217, 1148, δ(O-N) = 1042, δ(CH=) = 939
23	K	K	K	Kin	4:1	208	95%	262,4 (4,54)	v(OH, NH) = 3246, v(CH <sub>3</sub> , CH <sub>2</sub> , CH) = 2924, v(C=O) = 1601, v(C=O) ( <sup>11</sup> C=O), v(C=C, C=N) = 1557, δ(CH <sub>3</sub> , CH <sub>2</sub> , CH) = 1510, 1454, 1393, 1360, 1286, 1215, δ(O-N) = 1040, δ(CH=) = 939
24	K	K	K	Kin	9:1	195	96%	261,2 (4,55)	v(OH, NH) = 3246, v(CH <sub>3</sub> , CH <sub>2</sub> , CH) = 2924, v(C=O), v(C=O) = 1601 ( <sup>11</sup> C=O), v(C=C, C=N) = 1559, δ(CH <sub>3</sub> , CH <sub>2</sub> , CH) = 1508, 1456, 1394, 1362, 1286, 1215, 1167, δ(O-N) = 1040, δ(CH=) = 936
25	Na	Na	Na	Ad	2:1	192	95%	260,8 (6,52)	v(OH, NH) = 3036, v(CH <sub>3</sub> , CH <sub>2</sub> , CH), v(C=O) = 1778, v(C=O) = 1634 ( <sup>11</sup> C=O), v(C=C, C=N) = 1564, δ(CH <sub>3</sub> , CH <sub>2</sub> , CH) = 1435, 1362, 1310, 1242, 1119 δ(O-N) = 1041, δ(CH=) = 943.
26	Na	Na	Na	Ad	4:1	190	95%	260,8 (4,46)	v(OH, NH) = 3001, v(CH <sub>3</sub> , CH <sub>2</sub> , CH) = 2957, 2872 v(C=O) = 1773, v(C=O) = 1612 v(C=C, C=N) = 1560, δ(CH <sub>3</sub> , CH <sub>2</sub> , CH) = 1429, 1362, 1290, 1242, 1169, δ(O-N) = 1032, δ(CH=) = 945
27	Na	Na	Na	Ad	9:1	206	92%	260,4 (4,64)	v(OH, NH) = 3026, v(CH <sub>3</sub> , CH <sub>2</sub> , CH), v(C=O), ( <sup>11</sup> C=O), v(C=C, C=N) = 1684, v(C=C, C=N) = 1560, δ(CH <sub>3</sub> , CH <sub>2</sub> , CH) = 1456, 1431, 1313, 1200, δ(O-N) = 991, δ(CH=) = 949
28	Na	Na	Na	Kin	2:1	203	94%	265,8 (4,56)	v(OH, NH) = 3026, v(CH <sub>3</sub> , CH <sub>2</sub> , CH), v(C=O), v(C=O) = 1618 ( <sup>11</sup> C=O), v(C=C, C=N) = 1570, δ(CH <sub>3</sub> , CH <sub>2</sub> , CH) = 1437, 1364, 1308, 1252, 1157, δ(O-N) = 1047, δ(CH=) = 936
29	Na	Na	Na	Kin	4:1	200	93%	263,6 (4,08)	v(OH, NH) = 3017, v(CH <sub>3</sub> , CH <sub>2</sub> , CH), v(C=O) = 1734, v(C=O) = 1624 ( <sup>11</sup> C=O), v(C=C, C=N) = 1560, δ(CH <sub>3</sub> , CH <sub>2</sub> , CH) = 1449, 1412, 1362, 1317, 1238, 1200, 1159, δ(O-N) = 1030, δ(CH=) = 947
30	Na	Na	Na	Kin	9:1	205	96%	262,8 (4,33)	v(OH, NH) = 3026, v(CH <sub>3</sub> , CH <sub>2</sub> , CH), v(C=O) = 1869, v(C=O) = 1618 ( <sup>11</sup> C=O), v(C=C, C=N) = 1560, δ(CH <sub>3</sub> , CH <sub>2</sub> , CH) = 1437, 1362, 1341, 1244, 1163, δ(O-N) = 1045, δ(CH=) = 945

Ad-adenin, Kin-kinetin

IQ-spektrida GK molekulasidagi OH guruhlarining valent tebranish chastotalari  $3368\text{ sm}^{-1}$  sohada keng yelka ko‘rinishda kuzatilgan,  $\text{CH}_3$ ,  $\text{CH}_2$  guruhlarining valent tebranish chastotalari  $2924\text{--}2868\text{ sm}^{-1}$  sohada namoyon bo‘lgan,  $1713\text{ sm}^{-1}$  da GK molekulasidagi karboksil guruhlarining karbonil qismiga tegishli valent tebranish chastotalari kuzatilgan. GK molekulasining aglikon qismidagi C-11 da joylashgan karbonil guruhining valent tebranish chastotasi  $1656\text{--}1653\text{ sm}^{-1}$  sohada intensiv holatda namoyon bo‘lgan.  $1446\text{--}1143\text{ sm}^{-1}$  da  $\text{CH}_3$ ,  $\text{CH}_2$  guruhlarining deformatsion tebranish chastotalari hosil bo‘lgan.  $1087\text{--}1043\text{ sm}^{-1}$  sohalarda molekuladagi C-O-C hamda C-O-N bog‘larining valent tebranish chastotalari kuzatilgan,  $985\text{--}975\text{ sm}^{-1}$  da ( $=\text{CH}$ ) guruhining deformatsion tebranish chastotalari namoyon bo‘lgan. Kinetin molekulasidagi  $-\text{NH}$  guruhiga tegishli valent tebranish chastotasi  $3198\text{--}3193\text{ sm}^{-1}$  da, C=N bog‘lariga tegishli tebranish chastotalari  $1592\text{--}1588\text{ sm}^{-1}$  da kuzatilgan.




**1-rasm. GK, Kinetin, GK:kinetin 2:1 kompleksining IQ-spektrlari**

Olingan supramolekulyar komplekslar va dastlabki moddalarning (GK va kinetin) IQ-spektrlarida asosiy funktsional guruhlar valent tebranish chastotalaridagi o‘zgarishlarga asoslanib, molekulyar komplekslar hosil bo‘lishida molekulalar o‘rtasida qanday turdagi ta’sirlashuvlar mavjudligi to‘g‘risida mulohaza qilish mumkin (1-rasm). Jumladan, GK molekulasidagi  $-\text{OH}$  guruhlarining valent tebranish chastotalari  $3370\text{--}3364\text{ sm}^{-1}$  da, kompleksda esa  $3342\text{--}3335\text{ sm}^{-1}$  sohada namoyon bo‘lgan. OH guruhlarining valent tebranish chastotalarini  $29\text{ sm}^{-1}$  ga farq qilishi kompleksda vodorod bog‘lari hosil bo‘lganligidan dalolat beradi. Bundan tashqari  $3395\text{--}3055\text{ sm}^{-1}$  sohalardagi  $\text{NH}$ -guruhiga tegishli tebranish chastotalari intensivligining keskin kamayganligi

kompleks hosil bo'lishida vodorod bog'lardan tashqari ion-dipol' ( $-\text{NH}_3^+\cdots\text{O}-\text{H}$ ,  $\text{NH}^+\cdots\text{OH}$ ,  $-\text{COO}^-\cdots+\text{NH}_3^+$ ) ta'sirlashuvlar ham bo'lishi mumkin, degan xulosaga olib keladi.

Olingan komplekslarning hosil bo'lishi va ularning eritmadagi holatlarini hamda kompleks tarkibini yanada aniqroq tahlil qilish maqsadida xromatomass-spektrometriya usuli yordamida molekulyar massalari 3000 gacha bo'lgan supramolekulyar komplekslarning mass-spektrlari (Q-TOF LC-MS, Agilent Technologies seriya 6520V) olindi.

GK:kinetin 2:1 kompleksining mass-spektrida dastlabki moddalarning monomer, dimer hamda trimerlariga tegishli molekulyar ionlarning massalaridan tashqari  $[\text{M}^{\text{GK}}+\text{M}^{\text{Kinetin}}+\text{H}]^+$  va  $[2\text{M}^{\text{GK}}+\text{M}^{\text{Kinetin}}+\text{H}]^+$  larga tegishli  $m/z$  1038,4986 va 1861,9100 ion signallari kuzatilganligi (2-jadval), ushbu kompleksda GK va kinetin molekullari o'zaro nokovalent ta'sirlashuvlar hisobiga «mehmon-mezbon» turidagi komplekslarning hosil qilganligidan dalolat beradi (2-rasm).



2-rasm. GK:kinetin 2:1 kompleksining mass-spektri

2-jadval

GK:kinetin 2:1 kompleksining mass spektridagi asosiy xarakterli ionlar signali


No	Ion tuzilishi	m/z	No	Ion tuzilishi	m/z
1	$[\text{M}^{\text{Kinetin}}+\text{H}]^+$	216,0895	5	$[2\text{M}^{\text{GK}}+\text{H}]^+$	1646,8230
2	$[2\text{M}^{\text{Kinetin}}+\text{H}]^+$	429,3195	6	$[\text{M}^{\text{GK}}+\text{M}^{\text{Kinetin}}+\text{H}]^+$	1038,4986
3	$[3\text{M}^{\text{Kinetin}}+\text{H}]^+$	649,4541	7	$[2\text{M}^{\text{GK}}+\text{M}^{\text{Kinetin}}+\text{H}]^+$	1861,9100
4	$[\text{M}^{\text{GK}}+\text{H}]^+$	823,4119			

### Kompleks birikmalarning suvli eritmalaridagi barqarorlik konstantalari va Gibbs erkin energiyasi qiymatlarini aniqlash

Olingan supramolekulyar komplekslardagi «mezbon» va «mehmon»ning stexiometrik nisbatlarini aniqlashda izomolyar seriyalar usulidan (*Ostromislenskiy-Job usuli*) foydalanildi.

Izomolyar seriyalar usulida komplekslarning barqarorlik konstantasi va Gibbs erkin energiyasini aniqlash uchun dastlab ikki (“mehmon” va “mezbon”) komponentning bir xil molyar kontsentratsiyali ( $10^{-4}$  M) eritmaları tayyorlandi va antibat nisbatlarda (1:9 dan 9:1 gacha) aralashirildi. Bunda eritma hajmining hamda reagentlarning umumiy kontsentratsiyalari doimiyliigi saqlanadi ( $V_M+V_R=const$ ;  $C_M+C_R=const$ ).


Eritmalarning ion kuchi va pH qiymati doimiyliigini saqlash maqsadida bufer sistemadan foydalanildi (fosfatli bufer  $\text{Na}_2\text{HPO}_4\text{--NaH}_2\text{PO}_4$ , pH 7.2). Tayyorlangan izomolyar seriyalar doimiy haroratda ( $20^\circ\text{C}$ ) 40 daqiqa davomida inkubator aralashirgichda aralashirildi. So‘ngra ularning UB-spektrlari olindi va quyidagi grafiklarning yig‘indisi hosil bo‘ldi.



3-rasm. GKMAT va kinetin kompleksining izomolyar seriyalar usulida olingan UB spektrlari

3-rasmdagi grafikdan ko‘rinib turibdiki, yaqin UB sohada 227, 262 hamda 301 nmlarda izobestik nuqtalar mavjud. Bu izobestik nuqtalarning mavjudliigi eritmada bir xil tipdagi komplekslar hosil bo‘layotganligidan dalolat beradi. Umumiy tarzda muvozanat konstantasini quyidagicha ifodalash mumkin:

$$K = \frac{[GKMAT - Kinetin]}{[GKMAT][Kinetin]}$$



Olingan izomolyar seriyalarning optik zichligi bilan dastlabki reagentlarning kontsentratsiyalari nisbati orasidagi bog‘liqlik grafigidan hosil bo‘lgan kompleks tarkibidagi dastlabki moddalarning mol nisbatini aniqlash mumkin bo‘ladi. Egri chiziqlar orqali o‘tkazilgan to‘g‘ri chiziqlar kesishgan joy moddalarning mol nisbatlarini belgilab beradi (4-rasm).

4-rasm. GKMAT va kinetin kompleksi izomolyar seriyalari optik zichligi bilan reagentlar kontsentratsiyalari nisbatiga bog‘liqlik grafigi

4-rasmdagi grafikdan ko‘rinib turibdiki, GKMAT va kinetin ~1:1 mol nisbatda kompleks hosil bo‘lishining maksimal unumiga erishilgan. 1:1 mol nisbatdagi komplekslar uchun quyidagi formulaga (1) asoslanib kompleksning barqarorlik konstantasini hisoblab topildi.

$$K = \frac{\Delta A_0 \cdot \Delta A_1}{c(\Delta A_0 - \Delta A_1)^2} \quad (1)$$

Bu erda  $C$ –modda kontsentratsiyasi,  $\Delta A_0$ -to‘la dissotsiyalanmagan kompleks optik zichligining o‘zgarishi,  $\Delta A_1$ -optik zichlikning egri chiziqdagi qiymatiga mos keluvchi o‘zgarishi.

Natijada GKMAT:kinetin kompleksining barqarorlik konstantasi  $(7.90 \pm 0.1) \cdot 10^5 K, M^{-1}$  ga tengligi aniqlandi.

